# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHI LARIDA NUTQ, MULOQOT, O'QISH VA YOZISH MALAKALARI SHAKLLANTIRISH

**Mirkomilova Nilufar**
*Jizzax shaxar 32-DMTT uslubchi*
**Usmonova Muborak**
*32-DMTT Tarbiyachisi*
**Parmanova Mohira**
*32-DMTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari shakllantirishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ilk qadam, nutqiy muloqot, o'qish, uzluksiz ta'lim, nutq, badiiy adabiyot, yozish, ta'lim-tarbiya, to'g'ri talaffuz.*

Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proqahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida uzluksiz ta'limningboshlang'ich qismi hisoblangan maktabgacha ta`lim tizimidanboshlanadi. Tadqiqotlar va ilmiy kuzatish natijasida inson o'z hayotidavomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini beshyoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevtomonidan 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'limtizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlarito'g'risida"gi Farmoni, 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707 "2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-maydagi PQ4312-son

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 – yilgacharivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi VazirlarMahkamasining 2020 yil 12 dekabr 802-son Maktabgacha ta'lim vatarbiyaning davlat standarti hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturlariniamalda joriy etilishi mazkur sohani yanada takomillashtirishgaqaratilganligi fikrimiz dalildir. Maktabgacha ta'lim- bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta`minlovchi, uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida farzandlarimizni har

tomonlama rivojlanishida, komil inson bo'lib voyaga yetishida, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining MTT ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari asosida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyasining 3 sohasi - nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari bo'lib ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

ona tilini eshitadi va tushunadi; ona tilida to'g'ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;

chet tilini o'rganishga qiziqish bildiradi;

chet tili bo'yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;

badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;

so'zning lug'aviy ma'nosi, bo'g'inli va fonetik tuzilishito'g'risida tasavvurga tushunchaga ega bo'ladi;

gapning turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi vaso'zlab bera oladi;

ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridanfoydalanishni biladi.

Tarbiyalanuvchilardagi ko'plab nutqiy muloqot va ko'nikmalarmashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda shakllanadi. Maktabgachta'limda bolalarning kattalar bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi. Mehnat jarayonida - xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi. O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilimmustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishilug'atning boyishiga, bolalarda nutqiy muloqot madaniyatinitarbiyalashga yordam beradi. Pedagog qurilishga oid o'yinlarni tashkiletish jarayonida bolalar uchun bir muncha qiyin bo'lgan so'zlarning(hajmni, miqdorni, sifati va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash)katta guruhini aniqlashtiradi va faollashtiradi. Harakatchan, matnli,sahnalashtirish o'yinlar, musiqiy o'yinlari bola nutqining ifodaliliginishakllantirish, to'g'ri nafas olish, sur'at, yaxshi diksiyani mashq qilishdayordam beradi. Bolalar ko'pgina o'yinlar jarayonida badiiy matnlarbilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishdaqo'llay boshlaydilar. Bolalarda atrof olam haqidagi bilimlar didaktiko'yinlar yordamida mustahkamlanadi, lug'at mustahkamlanadi,aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat vako'nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so'zni o'zgartirish, hikoyato'qish va h.k.) qo'llaniladi. Bolalar badiiy adabiyoti tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib

xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy histuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi.

Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi,jaranglayotgan ona nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarniyoshligidan nutqiy tarbiyalash, atrofni o'rab turgan olamdagi hodisalarnianglash va so'zlab berish, atrofdagilar bilan aloqalarni va nutqiymunosabatlarni yo'lga qo'yish hamda tilni - uning ovoz tarkibini,lug'atni, grammatik qurilishini oddiy anglashga asos bo'ladi.

## FOYDALANGA ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T2020 yil 23 sentabr.

2.D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" DarslikBarkamol fayz media. 2018 yil  432 bet.

3.Maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" davlat o'quvdasturi. T 2018 yil.

4. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti. 802-son22.12.2020

9. Abdusamatov, H., & QURBANOVA, M. (2022). Some social and psychological advice for families who have been destroyed. In Conference Zone (pp. 22-24).

10. Mamurjonovna, N. D. (2020, June). The concept of psychological service and its controversial issues in family. In Archive of Conferences (Vol. 2, No. 2, pp. 34-36).

11. Nuraliyeva, D. M. (2020). Examining the orientation of women in the field of psychosocial service for the family and the empirical analysis of psychological qualities. In International scientific and practical conference Cutting Edge-science Primedia E-launch page115-116. USA Conference Proceedings (Vol. 6).

12. Nuraliyeva, D. M. (2020). THE PROBLEMS OF DEVELOPING SOCIAL PSYCHOLOGICAL MECHANISMS IN THE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 711-713.

13. Nuralieva, D. M. (2020). THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 405-410).

14. Mamurjonovna, N. D., & Nurislom Ulug'bek o'gli, K. (2022). A STUDY OF THE SOCIAL PERCEPTIONS OF CHILDREN OF HAPPY AND CONFLICTED FAMILIES ABOUT THE FUTURE. In Conference Zone (pp. 9-11).

15. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. Uzbek Scholar Journal, 6, 39-43.

16. Нуралиева, Д., & Абдусаматов, Х. (2021). Ajralish arafasidagi oilalarga psixologik xizmat ko 'rsatishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Общество и инновации, 2(10/S), 493-498

17. Mamurjonovna, N. D., & Abdukarimova, M. R. (2021, July). ON THE PSYCHOLOGICAL CRITERIA AND ORIGINAL FACTORS OF DISPUTES BETWEEN YOUNG PEOPLE. In Archive of Conferences (pp. 50-55).

Nuraliyeva, D. M. (2021). PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO FAMILIES ON THE VERGE OF DIVORCE. Экономика и социум, (10 (89)), 186-189.

18. Mamurjonovna, N. D. (2022). NIKOH OLDI OMILLARI VA OILA QURISH MOTIVLARINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYALARI: Nuralieva Dildora Mamurjonovna Farg 'ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi psixologiya fanlari bo 'yicha falsafa dokori (PhD). Asqarova Odinaxan Mamatxonovna Psixologiya magistratura yo 'nalishi 2-kurs talabasi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12), 312-316.

19. Нуралиева, Д. М. (2022). OILALARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO 'RSATISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Нуралиева Дилдора Мамуржоновна ФарДУ психология фанлари бўйича фалсафа доктори,(PhD). Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (11), 370-377.

20. Mamurjonovna, N. D. (2022). O'SPIRINLARDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANISHIDA OILA MUXITINI TUTGAN O'RNI: Nuraliyeva Dildora Mamurjonovna FarDU psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD) Kenjayeva Dilnozaxon Sadirdinovna Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) 2-kurs magistranti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (12), 293-298.

21. Axrorov, P. Q., & Nuraliyeva, D. M. (2022). AMERIKA PSIXOLOGIYA MAKTABI NAMOYONDALARINING ZAMONAVIY TADQIQOTLARINING OZIGA XOS JIHATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 59-61.